

**XORAZM SHEVALARIDA QO‘LLANILUVCHI AYRIM  
FORS- TOJIK TILIGA MANSUB SO‘ZLAR  
(uy-ro‘zg‘or buyumlari misolida)**

**Hamida Orislanova**

UrDU Magistratura bo‘limi Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi  
211-guruh magistranti

**ANNOTASIYA**

*Ushbu maqolada Xorazm shevasida qo‘llaniluvchi fors va tojik tillaridan o‘zlashgan ayrim uy-ro‘zg‘or buyumlariga oid leksika tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zlashma qatlam, eron tillari guruhi, fors tili, tojik tili, sheva, uy-ro‘zg‘or buyumlari.*

O‘zbek va fors-tojik tillari o‘rtasidagi aloqa uzoq davrlarga borib taqaladi. Asrlar davomida ikki xalq aholisining yondosh hududda yashashi, bu xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy hamkorliklari ularning tillariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan: ular bir-birlarining tilini o‘rganishgan, bir-birlaridan so‘z qabul qilishgan. O‘zbek tili ham boshqa tillardan farq qilmagan tarzda ma’daniy-siyosiy aloqalar natijasida boshqa tillardan so‘zlarni qabul qilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, “... hech bir til uning sheva yoki lahjasi yo‘qki, ularning tarkibida boshqa tillardan kirgan so‘zlar bo‘lmasin. Chunki so‘z olish til hayotining zaruriy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi<sup>1</sup>”.

Xuddi shunday Xorazm shevasi leksikasining asosiy qismini turkiy so‘zlar tashkil etgan holda, sheva fondida arab, fors-tojik va yevropa tillariga oid so‘zlar ham mavjud. Professor O. Madrahimov tadqiqotlariga ko‘ra Xorazm sheva leksikasida eron tillari guruhiga mansub so‘zlar turkiy qatlamdan so‘ng keyingi o‘rinda turishini ta’kidlaydi. Bu qatlamga mansub so‘zlarni kundalik ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy hayotimizda ko‘plab uchratishimiz mumkin. Quyida uy-ro‘zg‘or buyumlariga mansub so‘zlarning ayrimlari xususida so‘z yuritamiz.

**Käpkir** –“kapgir”<sup>2</sup>. Bu ot tojik tilida “go‘sh t qaynay boshlaganda hosil bo‘ladigan dag‘al ko‘pik” ma’nosini anglatadigan “kaft”<sup>3</sup> otiga “ol-” ma’nosini anglatadigan “giriftan”<sup>4</sup> fe’lining “gir” hozirgi zamon asosini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, tojik

<sup>1</sup> Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шеваларидаги форсча ва тожикча лексик бириклар. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, №3. –Б.40. (40-46)

<sup>2</sup> Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг хива шеvasи.-Урганч:Хоразм,1999.-Б.103

<sup>3</sup> Таджикско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.:1954.-С.184

<sup>4</sup> Таджикско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.:1954.-С.103

tilida *kafk* oti oxiridagi *k* tovushi aytilmay, “*kafgir*” shaklida ishlatiladi.<sup>1</sup> O‘zbek adabiy tilida bu so‘z *kapgir* shaklida qo‘llanilib, *f-p* fonetik o‘zgarishiga uchragan. Xorazm shevasida esa *kapkir* shaklida bo‘lib *p* jarangsiz tovushi ta‘sirida keyingi tovush jarangsizlashishini *g-k* ko‘rishimiz mumkin.

**Pärdä-** “deraza, eshik pardasi”<sup>2</sup>. Bu ot tojik tilida “eshik” ma’nosini anglatadigan *dar* oti bilan “tutuq” ma’nosini anglatadigan *parda* otidan tuzilgan bo‘lib, dastlab “eshik tutug‘i” ma’nosini anglatish uchun ishlatilgan.<sup>3</sup> Hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida “derazaga osiladigan bezak yoki mato-gazlama” ma’nosini bildiradi.

**Chirä-** “chiroq”<sup>4</sup>. Bu ot fors tilida *cherag*<sup>5</sup>, tojik tilida *charog*<sup>6</sup> shakliga ega. O‘zbek tiliga tojikcha shakli birinchi bo‘g‘inidagi *a* tovushini *i* tovushiga, oxiridagi *g*‘ tovushini *q* tovushiga almashtirib olingan. Xorazm shevasida esa *i* tovushining kuchsizlanishi, *o* tovushining *a* tovushiga o‘zgarishi va so‘z oxiridagi *q* tovushining tushib, fonetik hodisaga uchraganini ko‘rishimiz muki.

**Dastirxān-** “dasturxon”<sup>7</sup>. Bu ot fors tilida *dāstarxon*<sup>8</sup>, tojik tilida *dasturxon*<sup>9</sup> shaklida uchraydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *dasturxon* shakli keltirilgan bo‘lib, “ovqat qo‘yiladigan mato” ma’nosida izohlangan. Xorazm shevasida birinchi bo‘g‘indagi old qator unli *a* tovushi ta‘sirida so‘z o‘rtasidagi orqa qator unli *u* tovushi old qator unli *i* tovushiga o‘zgarib, singormanizm hodisasiga uchrab, *dastirxan* shaklida talaffuz qilinadi.

**Kosā-** “piyola”<sup>10</sup>. Bu ot fors tilida *kās*, ko‘plikda *kāsat* shakllarida, tojik tilida *kosa* shaklida uchraydi. O‘zbek tilida esa tojik tilidagi variantini ko‘rishimiz mumkin. Xorazm shevasida esa *kosā* shaklida uchrab, so‘z oxiridagi *a* unli tovushining *o* unli tovushiga almashganini ko‘ramiz.

**Lājān-** “xamir qorish yoki qo‘l yuvish uchun ishlatiladigan idish”<sup>11</sup>. Bu tojikcha ot bosh ma’nosida “mis toz” ni, ko‘chma ma’nosida “patnos” ni anglatadi. Xorazm

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати III . – Тошкент: Университет, 2009.-Б-118

<sup>2</sup> Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: ЎзССР Фанлар Академияси , 1961.-Б-110

<sup>3</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати III . – Тошкент: Университет, 2009.-Б-79

<sup>4</sup> Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: ЎзССР Фанлар Академияси , 1961.-Б-98

<sup>5</sup> Персидско-русский словарь.-М.: Русский язык, 1985.-С.162

<sup>6</sup> Таджикско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.:1954.-С.438

<sup>7</sup> Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: ЎзССР Фанлар Академияси , 1961.-Б-109

<sup>8</sup> Персидско-русский словарь.-М.: Русский язык, 1985.-С.218

<sup>9</sup> Таджикско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.:1954.-С.123

<sup>10</sup> Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: ЎзССР Фанлар Академияси , 1961.-Б-110

<sup>11</sup> Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг хива шеvasи.-Урганч: Хоразм, 1999.-Б.121

shevalarida soʻz oʻrtasidagi *g* tovushi *y* tovushiga oʻzgarib, “quyuq ovqat solinadigan katta idish” yoki “kir yuvish uchun ishlatiladigan idish” maʼnoslarini anglatadi.

**Kúrt-** gugurt. Bu ot fors tilida *gugārd*<sup>1</sup> shaklida, tojik tilida *goʻgird*<sup>2</sup> shaklida uchrab, oʻzbek tilidagi *gugurt* otining tovush tarkibi bu otning yuqoridagi manbalarda keltirilgan tovush tarkibiga aynan bir xil emas: birinchi boʻgʻinda *o*ʻ tovushi emas, *u* tovushi kelishi fors tili bilan bir xil boʻlgan holda, ikkinchi boʻgʻindagi *a, i* emas, *u* tovushining, oxirgi *d* tovushining *t* tovushiga oʻzgarishi har ikki manbadan farqli. Birinchi boʻgʻindagi *u* tovushiga monand ikkinchi boʻgʻinda *i* tovushi emas, *u* tovushining kelishi orqali singormanizm hodisasi yuzaga kelgan boʻlsa, soʻz oxiridagi *d* tovushning *t* tovushga oʻzgarishi oʻzbek tilida mavjud tovush oʻzgarishlari asosida hosil boʻlgan. Xorazm shevasida *kúrt/kúruʻt/kúgúrt/kúyúrt* tarzida turli fonetik oʻzgarishlarga uchragan holda qoʻllaniladi.

**Tāvān-**tova<sup>3</sup>. Bu ot tojik tilidagi “qizdir” maʼnosini anglatadigan *toftan*<sup>4</sup> feʼlining *tob* hozirgi zamon asosiga *-a* qoʻshimchasini qoʻshgan holda yasalgan boʻlib, oʻzbek tilida tarkibidagi *b* tovushi *v* tovushiga alamshtirilgan. Xorazm shevasida birinchi boʻgʻindagi *o* unli tovushi, ikkinchi boʻgʻindagi *a* tovushiga moslashgan holda oʻzgarib, soʻz oxirida “*n*” tovushi orttirilib *tāvān* tarzida talaffuz qilinadi.

**Rāpidā-**nonni tandirga yopadigan yengcha<sup>5</sup>. Bu ot tojik tilida *rafida* shaklida keltirilgan boʻlib, oʻzbek tiliga *f* tovushini *p* tovushiga alamshtirib olingan. Non shakli berilgan xamirni tandirga yopishtirishda qoʻl kuymasligi uchun ishlatiladigan, orasiga qoʻl tiqiladigan joy qoldirib tikilgan narsa Xorazm shevasida ham *rāpidā* shaklida uchraydi.

**Tārāzī-** tarozi<sup>6</sup>. Bu ot asli tojik tilida *tarozu* tovush tarkibida uchrab, oʻzbek tiliga soʻz oxiridagi *u* tovushi *i* tovushiga oʻzgartirib olingan. Lekin oʻzbek xalq maqoli: *Har joyni qilma orzu, har joyda bor tosh-tarozu* tarkibida bu otning asl tovush tarkibi saqlangan. Xorazm shevasi leksik fondida bu soʻz *tārāzī* shaklida uchrab, birinchi boʻgʻindagi old qator unli *a* tovushi taʼsirida keyingi boʻgʻindagi orqa qator tovush *o* old qator *a* ga oʻzgarib, singormanizm hodisasiga uchragan holda, *tārāzī* shaklida talaffuz qilinadi.

Yuqorida keltirilgan fors va tojik tillariga xos bunday leksik birliklarni sheva vakillari nutqidan yana koʻplab davom qildirish mumkin. Chunki bu soʻzlar Xorazm shevasi vakillarining kundalik turmush tarzida faol qoʻllanilib kelinmoqda.

<sup>1</sup> Персидско-русский словарь.-М.: Русский язык,1985.-С.430

<sup>2</sup> Таджикско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.:1954.-С.110

<sup>3</sup> Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг хива шеваси.-Урганч:Хоразм,1999.-Б.159

<sup>4</sup> Таджикско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.:1954.-С.397

<sup>5</sup> Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг хива шеваси.-Урганч:Хоразм,1999.-Б.146

<sup>6</sup> Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент:ЎзССР Фанлар Академияси , 1961.-Б-110

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Абдуллаев Ф. *Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.*-Тошкент:ЎзССР Фанлар Академияси , 1961.
2. Раҳматуллаев Ш. *Ўзбек тилининг этимологик лугати III .* – Тошкент: Университет,2009.
3. Мадраҳимов О. *Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг хива шеваси.*- Урганч:Хоразм,1999.
4. *Таджикско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.:1954.*
5. *Персидско-русский словарь.*-М.: Русский язык,1985.